


Mavzu: **Mustaqil ona yurtim**

Aa *Ўzbekiston – ona diyorum.*

**1-sentabr –
O‘zbekiston mustaqilligi
kuni.**



1-mashq. O‘qing. Gaplarning chegarasini aniqlang.
Vatan so‘zining ma’nodoshlarini toping.

Men O‘zbekistonda yashayman Vatanimiz –
quyoshli va mehmondo‘st diyor

Mamlakatimiz ko‘p millatli bu yerda 130 dan
ortiq millat va elatlar yashaydi biz barchamiz
ahil-inoq yashaymiz va yurtimiz bilan
faxrlanamiz





2-mashq. Berilgan so'zlar ishtirokida gap tuzing va yozing.

Mustaqillik

xalqi

bayrami

Har

yili

sifatida

1-sentabrni

O'zbekiston

nishonlaydi.



3-mashq. Maqol ma'nosini izohlang va husnixat bilan ko'chiring.

*El qudrati – chin qudrat,
Vatan tuprogi – qimmat.*



4-mashq. Rasmlar nomining bosh harfidan so'z tuzing. Shu so'zdan foydalanib, turli so'zlar hosil qiling.





5-mashq. Nuqtalar o'rniga mazmunan mos so'zlar qo'yib, gaplarni o'qing.



1. O'zbekistonning poytaxti – ...
2. ... – davlatning asosiy qonuni.
3. Davlat ramzlari – ..., ..., ...
4. ... – Vatanga mehr va faxr uyg'otuvchi qo'shiq.
5. Vatan ...dan boshlanadi.



Vatan, diyor, makon, yurt, o'lka ma'nosi bir-biriga yaqin so'zlardir. Ularni yod oling va nutqingizda ishlating.



6-mashq. O'qing. Ikki bo'g'inli so'zlarni topib, yozing.

Vatanim – faxrim

Bizning Vatanimiz – mustaqil O'zbekiston. Ona diyorimiz juda ko'rkam va go'zaldir. Yurtimizda sayr qiladigan so'lim maskanlar juda ko'p. Biz o'lkamizning yashil tabiatini qadrlaymiz va uni asrab-avaylaymiz. Men mana shunday obod va ozod yurtda yashayotganimdan baxtiyorman. Vatanimiz – bizning faxrimiz!

